UDK:94(575.171):339“13/14”

# XIV–XV asrlarda Xorazmning iqtisodiy va savdo mavqeyi: Yozma manbalar qiyosiy tahlili

**Jumaniyozov Doniyor Xudoyorovich**
Urganch Innovatsion universiteti
Ijtimoiy-gumanitar va tillar kafedrasi o‘qituvchisi
Telefon raqam: +998 99 664 01 00
Elektron pochta: djumaniyozov201@gmail.com
Orcid : 0009-0009-8056-5047

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotda XIV–XV asrlarda Xorazmning iqtisodiy va savdo mavqei yozma manbalar asosida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda arab-fors va Yevropa manbalaridagi Xorazm shaharlarining iqtisodiy ahamiyati, savdo yo‘llari, mintaqalararo aloqalari hamda siyosiy o‘zgarishlarning savdo munosabatlariga ta’siri o‘rganilgan. Hamdulloh Mustavfiy Qazviniy, Shahobiddin al-Umariy, Abd ar-Rashid al-Bakuviy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh va boshqa mualliflarning ma’lumotlari o‘zaro qiyoslangan.

Shuningdek, Pegolotti va B. N. Zaxoder tadqiqotlari asosida Xorazmning Kaspiybo‘yi, Volga havzasi va Dashti Qipchoq bilan iqtisodiy aloqalari yoritilgan. Amir Temurning 1388-yildagi Gurganjga yurishi va uning iqtisodiy oqibatlari ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida XIV–XV asrlarda Xorazm iqtisodiy va savdo hayoti siyosiy o‘zgarishlar ta’sirida muayyan uzilishlarga uchragan bo‘lsa-da, vohaning qulay geografik o‘rni uning mintaqalararo savdo tizimidagi ahamiyatini saqlab qolganligi asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Xorazm, Gurganj, Urganch, iqtisodiy hayot, savdo aloqalari, tranzit savdo, Oltin O‘rda, Dashti Qipchoq, yozma manbalar.

**Аннотация:** В данном исследовании проведён сравнительный анализ экономического и торгового положения Хорезма в XIV–XV веках на основе письменных источников. Рассмотрены сведения арабо-персидских и европейских источников об экономическом значении городов Хорезма, направлениях торговых путей, межрегиональных связях, а также влиянии политических изменений на торговые отношения. Сопоставлены сведения таких авторов, как Хамдаллах Муставфи Казвини, Шихаб ад-Дин ал-Умари, Абд ар-Рашид ал-Бакуви, Низам ад-Дин Шами, Ибн Арабшах и других.

На основе исследований Пеголотти и Б. Н. Заходера также рассмотрены экономические связи Хорезма с Прикаспийским регионом, бассейном Волги и Дашт-и Кыпчаком. Проанализированы поход Амира Темура на Гурганч в 1388 году и его экономические последствия. В результате исследования обосновано, что, несмотря на определённые нарушения экономических и торговых связей Хорезма под воздействием политических изменений в XIV–XV веках, выгодное географическое положение оазиса способствовало сохранению его значения в системе межрегиональной торговли.

**Ключевые слова:** Хорезм, Гурганч, Ургенч, экономическая жизнь, торговые связи, транзитная торговля, Золотая Орда, Дашт-и Кыпчак, письменные источники

**Abstract:** This study provides a comparative analysis of the economic and trade position of Khorezm in the fourteenth and fifteenth centuries based on written sources. It examines information from Arabic-Persian and European sources concerning the economic significance of Khorezm’s cities, the directions of trade routes, interregional connections, and the impact of political changes on trade relations. The accounts of such authors as Hamdallah Mustawfi Qazvini, Shihab al-Din al-Umari, Abd al-Rashid al-Bakuwi, Nizam al-Din Shami, Ibn Arabshah, and other authors are comparatively examined.

Based on the studies of Pegolotti and B. N. Zakhoder, the economic links of Khorezm with the Caspian region, the Volga basin, and Dasht-i Qipchaq are also analyzed. The study further examines

Amir Timur’s campaign against Gurganj in 1388 and its economic consequences. The findings demonstrate that, despite certain disruptions to Khorezm’s economic and trade relations caused by political changes during the fourteenth and fifteenth centuries, the oasis’s favorable geographical position contributed to the preservation of its importance within the system of interregional trade.

**Keywords:** Khorezm, Gurganj, Urgench, economic life, trade relations, transit trade, Golden Horde, Dasht-i Qipchaq, written sources.

**KIRISH**

Xorazm vohasi O‘rta asrlarda Markaziy Osiyoning muhim iqtisodiy va savdo hududlaridan biri bo‘lgan. Uning Amudaryoning quyi oqimida joylashgani Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Kaspiybo‘yi va Sharqiy Yevropa hududlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratgan. XIII asr boshidagi mo‘g‘ullar istilosi Xorazmning shahar va iqtisodiy tizimiga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, keyingi davrda vohaning savdo yo‘llari va iqtisodiy markazlari yangi siyosiy-geografik sharoitlarga moslashib qayta shakllangan.

XIV–XV asrlarda Gurganj (Urganch) Xorazmning muhim iqtisodiy va savdo markazlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan. Arab-fors hamda Yevropa yozma manbalarida Xorazmning savdo yo‘llari, shaharlarining iqtisodiy ahamiyati va mintaqalararo aloqalariga oid ma’lumotlar uchraydi. Mazkur manbalarni qiyosiy o‘rganish Xorazmning Kaspiybo‘yi, Volga havzasi, Dashti Qipchoq va Sharqiy yo‘nalishlar bilan iqtisodiy aloqalarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi XIV–XV asrlarda Xorazmning iqtisodiy va savdo mavqeini yozma manbalar asosida tahlil qilish hamda vohaning mintaqalararo savdo tizimidagi o‘rnini aniqlashdan iborat. Bunda shaharlarning iqtisodiy salohiyati, savdo yo‘llarining yo‘nalishlari, siyosiy o‘zgarishlarning savdo munosabatlariga ta’siri hamda Xorazmning mintaqalararo almashinuv tizimidagi o‘rni asosiy tahlil obyekti sifatida qaraladi.

**ASOSIY QISM**

XIV asrga oid arab va fors tilidagi geografik hamda tarixiy manbalar Xorazmning iqtisodiy hayoti, shaharlarining mavqei hamda mintaqalararo aloqalari haqida muhim ma’lumotlar beradi. Jumladan, Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning “Nuzhat al-qulub” asari Xorazmning iqtisodiy-geografik holatini o‘rganishda muhim yozma manbalardan biri hisoblanadi. Undagi ma’lumotlar vohaning hududiy tuzilishi, xo‘jalik faoliyati va shaharlarining iqtisodiy ahamiyatini aniqlash imkonini beradi [1, 506–511].

Shahobiddin al-Umariyning “Masalik al-absar fi mamalik al-amsar” asari ham XIV asrda mavjud bo‘lgan siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur manbada Jo‘chi ulusi hududlari, ular o‘rtasidagi aloqa yo‘llari va savdo munosabatlariga oid ma’lumotlar mavjud. Al-Umariy ma’lumotlarini boshqa manbalar bilan qiyoslash Xorazmning shimoliy yo‘nalishlardagi iqtisodiy aloqalarini tarixiy-geografik jihatdan aniqlashtirish imkonini beradi [2].

Abd ar-Rashid al-Bakuviy ma’lumotlari esa Xorazmning XV asr boshlaridagi geografik va iqtisodiy holatini o‘rganishda muhimdir. Uning asarida Xorazm shaharlari, ularning geografik joylashuvi va xo‘jalik hayotiga oid ma’lumotlar saqlangan [3, 98–101]. Mazkur ma’lumotlar XIV asr manbalari bilan qiyoslanganda Xorazm shaharlarining iqtisodiy faoliyatida yuz bergan o‘zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Shunday qilib, arab-fors manbalari Xorazm iqtisodiy hayotining alohida shaharlar doirasidagi holatini emas, balki uni kengroq mintaqalararo siyosiy va savdo munosabatlari tizimida ko‘rib chiqish uchun asos yaratadi.

XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asr boshlarida Movarounnahr hamda Dashti Qipchoq siyosiy kuchlari o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashuvi Xorazmning iqtisodiy hayotiga ham ta’sir ko‘rsatdi. Amir Temurning Xorazmga yurishlari, ayniqsa 1388-yilda Gurganjning egallanishi va shaharning vayron qilinishi vohaning shahar tizimi hamda iqtisodiy aloqalarida muayyan uzilishlarni yuzaga keltirdi. Bu voqealar Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy va Ibn Arabshoh asarlarida turli nuqtayi nazarlardan aks etgan [4–5].

Mazkur manbalar Xorazmning faqat harbiy-siyosiy ahamiyatini emas, balki uning Movarounnahr, Dashti Qipchoq va Kaspiybo‘yi hududlari o‘rtasidagi aloqalarda tutgan o‘rnini ham aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan Xorazmni bir necha savdo-iqtisodiy yo‘nalishlar kesishgan hudud sifatida baholash mumkin.

Biroq Temur yurishlaridan keyingi iqtisodiy jarayonlarni faqat “tanazzul” tushunchasi bilan izohlash biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Siyosiy markazlarning o‘zgarishi va ayrim shaharlarning vayron bo‘lishiga qaramay, Xorazmning geografik mavqei uning mintaqalararo aloqalardagi ahamiyatini to‘liq yo‘qotishiga olib kelmadi. Keyingi davrda savdo yo‘nalishlarining ayrimlari o‘zgarib, iqtisodiy aloqalar yangi siyosiy sharoitlarga moslashgan.

Xorazmning uzoq masofali savdo munosabatlarini o‘rganishda Yevropa savdo-geografik manbalari ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, florensiyalik savdogar Franchesko Balduchchi Pegolottining “La pratica della mercatura” asari XIV asrning birinchi yarmidagi savdo amaliyoti va xalqaro savdo yo‘llari to‘g‘risida muhim ma’lumotlarni o‘zida mujassam etadi. Asarning Allan Evans tomonidan tayyorlangan ilmiy nashri 1936-yilda Cambridge, Massachusettsda Mediaeval Academy of America tomonidan chop etilgan [6].

Pegolotti ma’lumotlari Xorazmni Sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo munosabatlari kontekstida o‘rganish imkonini beradi. Biroq mazkur manbani Xorazm iqtisodiy hayotining bevosita statistik tavsifi sifatida emas, balki o‘sha davrdagi savdo yo‘nalishlari va savdogarlar harakatining geografiyasini aks ettiruvchi manba sifatida baholash maqsadga muvofiq.

XV asrning birinchi yarmiga oid ma’lumotlar ham Xorazmning mintaqalararo savdo munosabatlarida ma’lum darajada ishtirok etganini ko‘rsatadi. Jumladan, B. N. Zaxoder tadqiqotida 1438-yilda Volgabo‘yi hududida bo‘lgan sherozlik savdogar haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan. Ushbu materiallar Kaspiybo‘yi, Volga havzasi va Xorazm o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni o‘rganish uchun muhim daliliy asos bo‘la oladi [7, 166 –172].

Shu bilan birga, XVI asr o‘rtalariga oid Antoniy Jenkinson ma’lumotlarini XIV–XV asrlar uchun bevosita dalil sifatida qo‘llash metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Jenkinson 1558-yilda Xorazmga tashrif buyurgan va uning yozuvlari vohaning XVI asr o‘rtalaridagi siyosiy hamda iqtisodiy holatini yoritadi. U Urganchdagi savdo faoliyatining zaiflashganini, savdogarlar sonining kamligi va shaharning ichki siyosiy beqarorlikdan zarar ko‘rganini qayd etgan [8].

Shu sababli Jenkinson ma’lumotlaridan XIV–XV asrlar iqtisodiy hayotini isbotlovchi asosiy manba sifatida emas, balki Xorazmning uzoq davom etgan savdo-geografik ahamiyati va keyingi davrdagi iqtisodiy o‘zgarishlarni qiyosiy kuzatish imkonini beruvchi yordamchi manba sifatida foydalanish ilmiy jihatdan ma’qul.

**XULOSA**

XIV–XV asrlarda Xorazmning iqtisodiy va savdo mavqeiga oid yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi. XIV–XV asrlarda mo‘g‘ullar istilosidan keyin Xorazmning iqtisodiy va savdo hayoti yangi siyosiy va geografik sharoitlarga moslashgan holda davom etgan. Gurganj (Urganch) vohaning muhim iqtisodiy va savdo markazlaridan biri sifatidagi mavqeini saqlab qolgan. XIV asr oxiridagi siyosiy voqealar, xususan, 1388-yilda Gurganjning vayron qilinishi iqtisodiy aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, Xorazmning qulay geografik o‘rni uning mintaqalararo va tranzit savdodagi ahamiyatini saqlab qolgan.

Yozma manbalarni qiyosiy tahlil qilish Xorazmning Kaspiybo‘yi, Volga havzasi, Dashti Qipchoq va Sharqiy Turkiston yo‘nalishlari bilan savdo aloqalarida ishtirok etganini ko‘rsatadi. Umuman, XIV–XV asrlarda Xorazm iqtisodiy hayoti to‘liq uzilmagan, balki siyosiy va geografik o‘zgarishlar ta’sirida qayta shakllangan. Yozma manbalarni arxeologik va numizmatik ma’lumotlar bilan birgalikda o‘rganish ushbu davr iqtisodiy jarayonlarini yanada aniq yoritish imkonini beradi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Hamdulloh Mustavfiyi Qazviniy. Nuzhat-ul-qulub // Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т. I. VII-XV вв. – М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. – С. 506–511.
2. Тизенгаузен В. Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Т. 1. Извлечения из сочинений арабских. – СПб., 1884. – С. 207–208, 242–244
3. Абд ар-Рашид ал-Бакуви. Китаб талхис ал-асар ва аджойиб ал-маллик ал-каххор / Пер. З. М. Буниятова. – М.: “Наука”, 1971. – С. 98–101.
4. Низомиддин Шомий. Зафарнома / Fors tilidan tarjima qiluvchi Y. Hakimjonov, mas'ul muharrir O. O‘rinboyev. – Toshkent: Fan, 1972. – B. 112–118; МИТТ. Т. I. – С. 511–523.
5. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур tarixiida taqdir ajoyibotlari). I kitob. – Toshkent: “Mehnat”, 1992. – B. 64–72.
6. Заходер Б. Н. Ширазский купец на Поволжье в 1438 г. // Каспийский свод сведений о Восточной Европе. Т. II. – М.: Наука, 1967. – С. 166–172.
7. Pegolotti F. B. La Practica della Mercatura / Ed. A. Evans. – Cambridge, Mass.: Mediaeval Academy of America, 1936. – P. 21–23.
8. Jenkinson A. Early Voyages and Travels to Russia and Persia / Ed. by E. Delmar Morgan and C. H. Coote. – London: Hakluyt Society, 1886; Джеймисон А. Путешествие Английского купца Дженкинсона в Среднюю Азию в 1558–1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке. – Л., 1938. – С. 167–182.